

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
Bobur nomidagi Andijon viloyat axborot-kutubxona markazi
Ilmiy-metodika xizmati**

*2024-yil “Yoshlar va biznesni
qo'llab-quvvatlash yiliga*

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR VA BIZNESGA E'TIBOR ASOSIY VAZIFAMIZDIR

(Metodik tavsiyanoma)



ANDIJON-2024

Yoshlar – davlat va jamiyatning hal qiluvchi kuchi, ertasining egalari. Ular tom ma'noda, O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasidir.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida **2024-yil O'zbekistonda “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”** deb e'lon qilindi.

Har qanday davlatning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. Shu ma'noda Yangi O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mamlakatimizda yoshlarning zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar ishga solinmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan so'nggi yillarda yoshlar uchun imkoniyatlar eshigi shu qadar keng ochib berildiki, bunday imtiyoz va imkoniyatlar hech bir davlatda yo'qligini baralla ta'kidlash mumkin.

Jumladan, 2021-yildan OTMlarga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yosh uchun Prezident granti joriy etildi. Hozirgi Prezident stipendiyasi faqat bir o'quv yili uchun mo'ljallangan bo'lsa, ushbu grant mablag'lari to'rt yil davomida to'lab borilyapti. Shuningdek, IELTS, TOEFL, GMAT va SAT kabi imtihonlarda maksimal ballning kamida 75 foizini to'plagan yoshlarning imtihon xarajatlari to'liq qoplab berilmoqda. Yoshlarning loyihamalarini moliyalashtirish uchun Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi qoshida alohida jamg'arma tashkil etildi va mazkur jamg'arma yoshlarning loyihamalarini qulay shartlarda va past foizlarda moliyalashtiryapti. Bundan tashqari kichik sanoat zonalarida ishlab chiqarish binolari qurilib, yoshlarga imtiyozli shartlarda ijara va lizing asosida berilishi yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil qilindi. Hududlarda “Loyihalar fabrikasi” ish boshladi.

Yosh avlodning sog‘lom o‘sishi, sifatli ta’lim olishi va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishini ta’minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan **“besh muhim tashabbus”**ni joriy etish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim mакtablari, oliy o‘quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta’lim maskanlari —

Prezident mакtablari”, “Temurbeklar mакtabi”, “Ijod mакtablari” bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo‘lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.



Umuman, yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo‘lib ulg’ayishi yo’lida zamonaviy, ilg’or-innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O‘zbekiston bor kuch va imkoniyatlarini ishga solmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy yetuk, jismonan sog’lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e’tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham shuncha yuqori bo’ladi. Shu bois O‘zbekiston jamiyatning faol qatlami sifatida e’tirof etiluvchi

yoshlar qatlamiga «muammo» deb emas, balki yurt ravnaqini ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi sifatida qaramoqda. Natijada bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib boryapti.

Muxtar aytganda, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko'zlagan holda, bosqichma bosqich, kompleks chora-tadbirlarga



tayanib izchil davom ettirilmoqda. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi sa'y-harakatlarni tizimli ravishda yo'lga qo'yish bo'yicha **5 ta muhim tashabbusning** ilgari surilishi yangi O'zbekistonning yangi tarixida yana bir inqilobiy bosqichga asos soldi.

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinci tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Davlat rahbarining bu ezgu g'oyasi O'zbekiston xalqi, ayniqsa, yoshlari tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinib, qisqa vaqt ichida mamlakat bo'ylab keng quloch yozdi.

Darhaqiqat, har qanday davlatning yuksak taraqqiy etishi, xalqining farovonligi yoshlarga yaratib beriladigan imkoniyat va qulayliklar bilan baholanadi. Ya'ni, mamlakat taraqqiyotiga kiritiladigan yuqori samarali sarmoya yoshlar ta'lif-tarbiyasiga yo'naltirilgan investitsiya ekani tarix isbotlagan haqiqat. Shu ma'noda, yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessansga dadil qadam qo'yishi zamonaviy innovatsion bilimlarni egallagan, har tomonlama yetuk va barkamol, inson kapitali sohibi bo'lgan yosh avlodning ertangi kuchli intellektual salohiyati, iqtidori va qobiliyatiga bog'liq. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, shaxsning **3 yoshidan 22 yoshigacha** bo'lgan davrida unga sarflanadigan investitsiya kelgusida **19-22 barobar ko'p** foyda berar ekan. Shu bois, O'zbekistondagi barcha o'zgarishlarning negizi hisoblangan ta'lif-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda.

Ayni vaqtda ta'lif, shu jumladan, ijtimoiy soha uchun sarflanayotgan xarajatlar miqdori davlat byudjeti xarajatlari umumiyligi qiyamatining yarmidan ko'pini tashkil etmoqda. Tabiiyki, bunday katta xarajatlarni har qanday davlat ham ko'tara olmaydi, ammo qanchalik og'ir bo'lmasin, mamlakatimizda buning uchun zarur mablag' va resurslar izlab topilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoev mazkur xarajatlarni xarajat emas, balki kelajak uchun qo'yilgan sarmoya deb hisoblab, ta'lif darajasi va sifati davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil ekanini



ta'kidlamoqda.

Bil'aks, mamlakat ta'lif tizimida bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rinni topishi uchun ko'mak beradigan yaxlit va uzlusiz tizim yaratish yo'lida amaliy sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Bu jarayonda, birinchi navbatda, farzandlarimizga bog'cha, maktab va oliy o'quv yurtida sifatli ta'lif-tarbiya berishni yo'lga qo'yish, ularning jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etish ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratiladi. Bir so'z bilan aytganda, yoshlarning ta'lif-tarbiya olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk va komil shaxslar bo'lib ulg'ayishi yo'lida zamonaviy, qulay, ilg'or va innovatsion shart-sharoitlarni yaratib berish uchun O'zbekiston bor kuch-imkoniyatlarini ishga solmoqda. Maqsad – Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, mamlakatimiz dunyoning eng taraqqiy etgan davlatlari qatoriga chiqishi uchun intellektual va ma'naviy yetuk, tashabbuskor yoshlarni yangi O'zbekistonning drayveriga aylantirishdan iborat. Shuning uchun ham, O'zbekistonda jamiyatning eng faol qatlami sifatida e'tirof etiluvchi yosh avlodga "muammo" deb emas, balki ertangi taraqqiyotni ta'minlovchi katta kuch, davlatning strategik resursi, deb qaralmoqda. Natijada, yuksak bilimli, g'ayrat-shijoatli, zamonaviy fikrlaydigan, mustaqil, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizda yoshlar sportini rivojlantirish, ularning muntazam sport bilan shug'ullanib borishlari uchun ham e'tibor kuchaymoqda. Ushbu tizim yo'lida sport inshootlarini barpo etishni ko'paytirish va ularni zamonaviy inventarlar bilan jihozlash uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa ularning ham ma'nani, ham jismonan sog'lom avlod bo'lib voyaga yetishishlari uchun asosiy bo'g'indir. Shubhasiz, jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom avlod bizning eng katta boyligimiz hisoblanadi. Eng muhimi, zamonaviy bilim va tafakkurga, sog'lom dunyoqarashga ega, rivojlangan davlatlardagi tengdoshlari bilan barcha jabhalarda bellashishga tayyor, ko'zi yonib turadigan navqiron avlodimiz katta ishonch bilan hayotga dadil kirib

kelayotgani barchamizni quvontiradi. Shuning uchun ham ana shu quvonchning bardavomligi yo'lida mas'uliyatni his etgan holda yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz. Zero, O'zbekiston kelajagi — sog'lom va barkamol avlod qo'lidadir.



Biznes (ing. business) -daromad keltiradigan yoki boshqa naf beradigan xo'jalik faoliyati (kasbkor, mashg'ulot); fonda olish maqsadlari ko'zlangan va qonunlarga xilof bo'limgan har qanday tashkiliy faoliyat. Milliy (davlat) qonunlar va xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinadi;

Biznes xo'jalik yuritish ko'lamiga qarab, yirik, o'rta va kichik turlarga bo'linadi. Yirik Biznes ishlab chiqarishda 500 dan ortiq kishi band bo'lgan, o'rta Biznes esa 20 — 500 kishi band bo'lgan korxona (firma)lar, kichik Biznes 10-20 va undan kam kishi ishlaydigan korxonalarini kamraydi. Yirik va o'rta Biznesga, asosan, yirik ko'p sonli tovarlar chiqaradigan, mexanizatsiyalashgan hamda avtomatlashgan sohalar kiradi. Kichik Biznes qishloq xo'jaligi, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarida keng tarqalgan. Kichik Biznes sharoitga tez moslasha olishi bilan boshqalaridan farklanadi va shu bois u keng tarqalgan.

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHLASH UCHUN BIZNES REJA TUZISH TARTIBI.

Har bir ishni boshlashdan oldin, u xoh biznes bo'lsin, xoh boshqa bir yumush, uni puxta rejalashtirish kerakligini hammamiz bilamiz. Biznes

boshlashdan oldin reja tuzish kelajakda kelib chiqishi mumkin bo'lgan ko'plab bosh muommolarni oldindan ko'ra bilish va o'yagan ishingizda yanada muvaffaqiyatli bo'lishingizda sizga yordam beradi.

Shunday ekan, bugun biznes reja yozayotganda e'tibor berishingiz kerak bo'lgan asosiy jihatlar haqida gapirib o'tmoqchimiz.

1. Biznes reja yozishdan maqsad nima ekanligini aniqlab oling.

Biznes reja nima maqsadda yozilayotganiga qarab turli shaklda bo'lisci mumkin . Biznes rejalar odatda quyidagi maqsadlarda yoziladi:

Boshlang'ich sarmoyani taxminan hisoblab chiqish;

- biznes loyihaning umuman olganda foydali yoki zararli ekanligini bilish; mahsulot yoki xizmatingizni, mijozlaringizni va raqiblaringizni aniqlashtirish;

- biznes modelingiz, maqsadlaringiz, va bu maqsadga erishish uchun kerakli strategiyalarni belgilash;

- biznes loyihangizni boshqalarga (bank, sarmoyadorlar, hamkorlar va h.k.) tushuntirib berish.

2. Nima haqida yozishingizni o'ylab reja tuzib oling.

Rejangizning asosiy bo'limlari ro'yxatini tuzib oling yoki diagrammalar yordamida muhim fikrlaringizni qisqa qilib qog'ozga tushiring. Asosiysi bular o'zingiz uchun tushunarli bo'lsa biznes rejangizni yozish jarayoni o'zingizga osonlashadi.

3. O'zingiz haqingizda ma'lumot bering.

Kim siz, o'yagan biznesingizni amalga oshirish uchun sizda qanday imkoniyatlar bor, ta'lim va malakangiz haqida bildiring.

4. Mahsulot yoki xizmatingiz nima ekanligini ta'riflab, tushuntirib bering.

Mijozlaringizga sizning mahsulot yoki xizmatingizdan nima foyda borligi, mahsulot/xizmatingizning o'ziga hos jihatlari, ishlab chiqarish jarayoni va hokazolar.

5. Xaridorlar va mijozlaringiz kimligini belgilab bering.

Nimaga aynan shu turdag'i mijozlar bozorini tanlaganingizni tushuntiring. Keltirgan sabablaringizni o'z shaxsiy tajribangiz yoki qilingan izlanishlar va tadqiqot natijalari bilan dastaklang.

6. Mahsulotingizning o'ziga xos va boshqalardan ajralib turuvchi jihatlari

Nimaga mijozlaringiz boshqa raqobatchilaringizning emas sizning mahsulot yoki xizmatingizni sotib olishi kerakligi haqida yozing. Sizning narhlaringiz boshqalardan arzonroqmi, yo sifat jihatdan ajralib turasizmi? Balki sizning joyingiz mijozlar uchun qulaydir, yoki vaqtidan yutish imkonini berarsiz?

7. Xaridorlaringiz mahsulotingiz uchun taxminan qancha pul sarflashini aniqlang.

Mijozlaringizni sizning mahsulot yo xizmatlaringizga qancha pul to'lashga tayyor ekanliklari, bir yilda o'rtacha necha martta shu mahsulot va xizmatni sotib olishlarini hisoblab yozing. Albatta bu yerda quruq taxminlar emas yana izlanish va tadqiqotlar natijasidan kelib chiqib yozishingiz kerak.

8. Bir yilda o'rtacha qancha mahsulot ishlab chiqara olishingiz haqida yozing.

Ishchi kuchi yoki uskunalarining qobiliyatidan kelib chiqib bir yilda shu mahsulotdan eng kop qancha ishlab chiqara olishingizni yoki xizmatingizni necha marta bera olishingizni hisoblab yozing. Yana dalillarga asoslanib yozish kerak.

9. Har bir mahsulotning tan narhi qancha bo'lishini hisoblang

Mahsulot ishlab chiqarish uchun ketadigan materiallar narhidan tortib ishchilarga beriladigan oylik, do'kon yoki uskuna arenda xarajati, soliq, elektr, telefon internetdan tortib barcha xarajatlarni hisobga olgan holda har bir mahsulotingizning tan narhi qanchaga tushishini hisoblab chiqing.

10. Qancha boshlang'ich sarmoya kerak bo'lishini yozingIshni muvaffaqiyatli boshlab olish uchun qancha boshlang'ich sarmoya kerak bo'lishini va bu sarmoya nimalarga ishlatalishini tushuntiring.

11. Umuman olganda sizning biznesingiz nimaga foyda keltiradigan bo'lishini va qancha vaqtda foyda olib kelishni boshlashini dalillar bilan yozing

Buning uchun bozorni yaxshilab o'rganib, hisob kitoblarni to'g'ri va ishonarli qilishingiz kerak.

12. Biznes rejangizdagi asosiy bo'limlarining qisqa mazmunini sanab o'ting.

Buni biznes rejangizning boshiga joylang. Ko'pincha sarmoyadorlarning biznes rejani to'liq o'qib chiqishga vaqtлari va xohishlari bo'lmaydi. Shuning uchun ular rejangizning barcha muhim va e'tiborga loyiq jihatlarini shu qisqa mazmunni yoritgan yozuvdan oqib, ularda qiziqish uyg'otsagina keyin detallarni bilish uchun asosiy qismni o'qishga kirishishlari mumkin. SHuning uchun bu bo'lim qisqa va e'tiborni tortadigan bo'lishi kerak.

Biznes adabiyoti – o‘z bilimlaringizga kiritilgan sarmoya

Agar siz o‘z biznesingizni boshlashni rejalashtirmagan bo‘lsangiz ham, biznes adabiyotlarini o‘qish foydali bo‘ladi. Siz yangi bilimlar olasiz, bu esa o‘z-o‘zidan bebahodir. Kitob hayotning ko‘plab sohalariga, jumladan, tadbirkorlikka bo‘lgan nuqtayi nazaringizni o‘zgartirishi mumkin. Ehtimol, navbatdagi kitob sizda o‘zingizga ishonchni yuksaltirib, o‘z biznesingizni noldan rejashtirishga ilhom berar. Siz esa bungacha allaqachon iqtisodiy strategiyalar haqida tasavvurga ega bo‘lishingiz kerak, ular kelajakda xatolardan qochishga va biznesni iloji boricha foydali qilishga yordam beradi.

Ishbilarmonlik adabiyotlari nafaqat yangi ish boshlagan biznesmenlar, balki tajribali tadbirkorlar uchun ham foydali bo‘lishi mumkin. Axir, dunyo bir joyda turmaydi. Iqtisodiyot jadal rivojlanmoqda va har bir ishbilarmon yangi voqeliklarga intilishi kerak. Bundan tashqari, kitoblar tanish narsalarga

yangicha nazar solishga yordam beradi. Navbatdagi o‘qiladigan kitob savdo nuqtalari yoki umuman biznes doirasini kengaytirishga turki berishi mumkin. Yangi bilimlar bilan qurollanib, har qanday loyihani tashkil qilish va muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lasiz.

Janr/bo'lim - Biznes

Muallif - Andrey Parabellum

Hammuallif - Nikolay Mrochkovskiy

Nashr yili – 2021 yil

Tili - O'zbek (kir)

Betlar -176

Nashriyat - Fan zivosi



Janr/bo'lim - Yo'riqnomalar, Biznes

Muallif - Jeff Uoker

Tarjimon - Faxriddin Sodiq

Nashr vili - 2022

Tili - O'zbek (kir)

Betlar - 288

Nashriyat - Info kapital buks



Janr/bo'lim - Biznes

Muallif -Tor Myuller

Hammuallif - Leyn Bekker


Tarijimon - Aleksandr Nikolaevich Anyaer

Nashr vili -2013

Tili - Rus

Betlar 320

Nashriyat - Mann, Ivanov i Ferber



K U T U B X O N A C H I G A

O'TKAZILISHI MUMKIN BO'LGAN OMMAVIY TADBIRLAR

Adabiyotlar ko'rgazmasi

1. “O'zbekiston – yoshlar mamlakati”
2. “Ma'naviy barkamol yoshlar – kelajagimiz poydevori”
3. “Yoshlarga e'tibor barqaror taraqqiyot kafolati”
4. “Biznes va xususiy tadbirkorlik – iqtisodiyotning tayanchi”

Davra suhbati

1. “Vatanparvarlik tarbiyasi: muammo va yondashuvlar”
2. “Millat saodati – yoshlar tarbiyasiga bog'liq”
3. “Yoshlar odam savdosiga qarshi”
4. “Kichik biznes- iqtisodiyotning qon tomiridir”

Viktorina

1. “Biz yoshlar huquqiy bilimimizni oshiramiz”
2. “Biz – buyuk yurt farzandlarimiz”

Tanlov

1. “Yosh qalamkashlar”
2. “Yosh kitobxon”

Videorolik

1. “Vatanparvar yoshlar – buyuk kelajak bunyodkori”
2. “Andijonning iqtidorli yoshlari”



Axborot-kutubxona muassasalarida keng kitobxonlarga mo'ljallangan Uchrashuv kecha o'tkazish.

Bobur nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi 2024-yil O'zbekistonda “**Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili**” munosabati bilan “**Vatanparvar yoshlar – buyuk kelajak bunyodkori**” mavzusidagi **Uchrashuv kecha STSENARIYSI**

O'tkazish joyi:

O'tkazish vaqtি:

Hamkorlar:

Ishtirkchilar:

OLIB BORUVCHI: Assalomu alaykum hurmatli mehmonlar, aziz o'quvchilar, muhtaram kitobxonlar! Bugungi “**Vatanparvar yoshlar – buyuk kelajak bunyodkorlari**” mavzusidagi 2024-yil O'zbekistonda “**Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili**” munosabati bilan tashkil etilgan Uchrashuv kechamizga xush kelibsizlar!

Bugungi tadbirimizga bir qancha taniqli kishilarni, ustozlarni hamda yosh bo'lishiga qaramay yirik ishlar qilgan tadbirkorlarni taklif etganimiz.

Marhamat siz azizlarni ular bilan tanishtirib o'taman!

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____

sizlarni ushbu ziyo maskanimizda ko'rib turganimizdan hursandmiz Hush kelibsizlar!

Yangi 2024 yil arafasida Prezidentmiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi e'lon qilindi. Tabrikda 2023 yilda hayotimizda chuqur iz qoldirgan asosiy tadbirlar haqida bayon etilib, tariximizda ilk bor xalqimiz referendum yo'li bilan yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qilganligi alohida ta'kidlab o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Inson qadrini ulug'lash, aholimiz manfaatlarini ta'minlash, buning uchun kuchli

iqtisodiyot barpo etish kabi muhim vazifamizni hayotga tadbiq etish maqsadida 2024 yilni mamlakatimizda “**Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili**”, deb e'lon qilindi. Bizningcha, “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash” degan iboraning tagida olam-olam ma'no mujassam.

Avvalo, mamlakatimiz yoshlar mamlakati. Aholimizning 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Bu degani maktabgacha ta'lim qamrovini oshirish, xalq ta'limi tizimidagi muammolarni yechish va ta'lim sifatini oshirish choralarini ko'rish, bu oliy ta'lim tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, oliy ta'limni sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqish, bu oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimidagi muammolarni bartaraf etish, yoshlarga kasb-hunar o'rgatish tizimini mukammallashtirish, umuman yoshlar uchun yangi ish o'rinalarini yaratish va hakazolar. Har yili mamlakatimiz aholisi 900 mingdan ortiq nafarga ortayotganligi esa ushbu masalalarga tizimli va tezkor yechimlar topishni taqozo etadi.

Endi “biznesni qo'llab-quvvatlash” deganda nimalarni tushunamiz, shu masalaga ham bir diqqatimizni qaratsak. Avvalo “Biznes” so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tiborimizni qaratsak, inglizcha business – ish, mashg'ulot, korxona, degan ma'nolarni anglatadi. Demak, biznesni qo'llab-quvvatlash deganda bandlikni, mashg'ullikni, korxonalarni qo'llab-quvvatlashni tushunishimiz kerak. Shuningdek, biznes deganda, faqat pul topishga qaratilgan sohani emas, balki doimiy ravishda e'tiborga, qo'llab-quvvatlashga ehtiyoji bor sohani tushunishimiz lozim. Ya'ni davlat tomonidan biznes qanchalik qo'llab-quvvatlansa, biznes ham mamlakatning rivojiga, taraqqiyotiga, xizmatlar sifatining oshishiga, mamlakat imijining ko'tarilishiga va alaloqibat xalqning farovonligiga xizmat qiladi. Biznes qanchalik rivojlansa, unga shunchalik ko'p ishchilar kerak bo'ladi, bu esa aholi, ayniqsa, yoshlar bandligini ta'minlaydi, yoshlarning noqonuniy migrantsion jarayonlarga jalb etilishini kamaytiradi.

Bugungi tadbirimizni ochib berish uchun so'zni Axborot va Ommaviy Kammunikatsiyalar Agentligi Andijon viloyat boshqarmasi boshlig'i Tadjiboev Zoxidjon Xatamovichga beramiz. Marhamat!

OLIB BORUVCHI: Rahmat! Mana tadbirimizni ham ochib oldik

Albatta, yoshlikka xos shijoat, jo'shqinlik va mardlikni, ezgu orzu-intilishlarni amaliy harakatga aylantirib, salmoqli natijalarga erishish uchun inson o'z oldiga aniq maqsad qo'yib yashashi kerak.

Endigi navbatni _____ ga beramiz.

OLIB BORUVCHI: Sizga ham rahmat kelgusi ishlaringizda bundanda yuqori cho'qqilarga erishishingizni tilaymiz.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida avvalo ona Vatanga, xalqqa xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam ekanini ko'ramiz. Masalan, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek singari ulug' allomalar, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi shoir va mutafakkirlar, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriydek ma'rifatparvar adib va olimlar mashhur ilmiy kashfiyotlarini, o'lmas badiiy asarlarini aynan sizlarning yoshingizda yaratganlarini hammamiz yaxshi bilamiz va bu bilan faxrlanamiz. Bizning tomirlarimizda ana shunday ulug' bobolarimizning qoni oqar ekan, ularning munosib vorislari bo'lish, ular kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashash barchamizning ezgu burchimizdir.

Endigi navbatni _____ ga beramiz.

OLIB BORUVCHI: Sizga ham rahmat kelgusi ishlaringizda omadlar yor bo'lsin.

Ma'lumki, har qanday tadbirkorlik bilan shug'ullanishni boshlagan shaxs oldida eng katta muammolardan biri sifatida bank kreditlarining foiz stavkasi yuqori ekanligi to'g'anoq bo'ladi. Bu, ayniqsa, hali biznesda tajribasi yuqori bo'lмаган yosh tadbirkorlarning qo'lga kiritgan foydasini kredit foizi uchun to'lab, ko'ngildagidek daromad qila olmasligiga, hattoki zararga ishlab, sinishiga ham olib kelishi mumkin.

Endigi navbatni _____ ga beramiz.

(Bank xodimiga beramiz)

OLIB BORUVCHI: Rahmat! Sizga ham tashrif va maslahatlaringiz uchun o'z minnatdorchiligidimizni bildiramiz.

Endigi navbatni yosh tadbirkorlarimizga beramiz ular o'zlarini erishgan yutuqlari bilan birgalikda "Innovatsion" va "startap" loyihalari bilan o'rtoqlashadilar. Marhamat!

OLIB BORUVCHI: Sizlarga xam kelgusi ishlaringizda ulkan yutuq va omad tilaymiz sizday yosh tadbirkorlar safi kengayaversin.

(Tadbir savol javoblar bilan davom etadi.)

OLIB BORUVCHI: Endigi navbatni tadbirimizni badiy qismiga beramiz Marhamat! (o'quvchilar o'zlarining kontsert dasturini taqdim etishadi.)

Mana bugungi tadbirimiz ham o'z nihoyasiga yetib kelmoqda. Tadbirimizni yakunlab berish uchun yakuniy so'zni Bobur nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi direktori G.Ismailovaga beramiz! Marhamat!

(Tadbir yakunida Bobur nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi tomonidan tashkil etilgan “**Biznes va xususiy tadbirkorlik – iqtisodiyotning tayanchi**” mavzusidagi adabiyotlar ko'rgazmasi bilan tanishadilar.